



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025- yil yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025- yil yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 52,1 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 1,8 mlrd AQSH dollariga yoki 3,3 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025- yil yanvar, mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **52,1** (-3,3 %)

(2024- y.: **53,8**)



Saldo

2025- y.: **-9,5** (2024- y.: **-4,1**)



Eksport

2025- y.: **21,3** (-14,4 %)

(2024- y.: **24,9**)




Import


2025- y.: **30,8** (+6,3%)

(2024- y.: **29,0**)

TSA'dagi ulushi



QIT'ALAR KESIMIDA TSA (2025-yil yanvar, mln AQSH doll.)



<p><u>Yevropa</u> Eksport – 6,2 Import – 8,1 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 27,4 %</p>	<p><u>Osiyo</u> Eksport – 14,9 Import – 22,7 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 72,2 %</p>	<p><u>Afrika</u> Eksport – 0,1 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,2 %</p>
<p><u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 0,1 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,2 %</p>	<p><u>Janubiy Amerika</u> Eksport – 0,0 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,0 %</p>	<p><u>Avstraliya</u> Eksport – 0,0 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,0 %</p>

TSAda eksport hajmi 21,3 mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 14,4 % ga kamaydi) va import hajmi 30,8 mln AQSH dollariga (6,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 9,5 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2025- yil yanvar, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.

Sirdaryo viloyati jahonning 29 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (25,6 %), Rossiyada (26,8 %), Qozog'istonda (19,4 %), Turkiyada (2,3 %) va Koreya Respublikasida (2,6 %) qayd etilgan.











XXR TSA – 13,3 Eksport: 2,9 Import: 10,4  25,6 %	Rossiya TSA – 14,0 Eksport: 6,7 Import: 7,3  26,8 %	Qozog'iston TSA – 10,2 Eksport: 1,3 Import: 8,8  19,4 %	Turkiya TSA – 1,2 Eksport: 0,1 Import: 1,1  2,3 %	Koreya Respublikasi TSA – 1,3 Eksport: 0,0 Import: 1,3  2,6 %
Germaniya TSA – 0,1 Eksport: 0,0 Import: 0,0  0,2 %	Qirg'iz Respublikasi TSA – 0,2 Eksport: 0,1 Import: 0,1  0,3 %	Afg'oniston TSA – 10,2 Eksport: 10,0 Import: 0,1  19,5 %	Fransiya TSA – 0,1 Eksport: 0,0 Import: 0,1  0,1 %	Tojikiston TSA – 0,3 Eksport: 0,1 Import: 0,2  0,6 %



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
XXR	7,7	14,7	13,3
<i>Eksport</i>	3,1	5,6	2,9
<i>Import</i>	4,6	9,1	10,4
Rossiya	8,6	8,4	13,4
<i>Eksport</i>	4,5	5,7	6,1
<i>Import</i>	4,1	2,7	7,3
Qozog'iston	26,6	10,8	10,1
<i>Eksport</i>	2,0	0,9	1,3
<i>Import</i>	24,6	9,9	8,8
Turkiya	3,8	1,8	1,2
<i>Eksport</i>	1,6	0,1	0,1
<i>Import</i>	2,2	1,7	1,1
Koreya Respublikasi	0,0	0,0	1,3
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	1,3
Germaniya	1,1	0,3	0,1
<i>Eksport</i>	1,1	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,3	0,1
Turkmaniston	0,0	0,0	0,0
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
Afg'oniston	16,6	8,5	10,1
<i>Eksport</i>	16,6	8,4	10,0
<i>Import</i>	0,0	0,1	0,1
Fransiya	1,0	0,1	0,1
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,0	0,1	0,1
Hindiston	0,0	2,1	0,0
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	2,1	0,0

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
AQSH	0,0	0,0	0,0
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
Qirg'iz Respublikasi	0,6	0,4	0,2
 <i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,1
<i>Import</i>	0,4	0,2	0,1
Belarus	0,0	0,1	0,1
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,1	0,1
Tojikiston	0,4	0,7	0,3
 <i>Eksport</i>	0,4	0,7	0,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,2
BAA	0,0	0,0	0,0
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
Litva	0,0	0,0	0,3
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,3
Eron	0,2	0,4	0,0
 <i>Eksport</i>	0,0	0,4	0,0
<i>Import</i>	0,2	0,0	0,0
Braziliya	0,0	0,0	0,0
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
Italiya	0,4	0,0	0,2
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,4	0,0	0,2
Chexiya	0,0	0,3	0,0
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,3	0,0

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI*

(2025- yil yanvar, mln AQSH doll.)




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 35,7 % ulush bilan 18,6 mln AQSH dollarini, Shirin shahrida tashqi savdo aylanmasi amalga oshirilmadi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2025-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024 - yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga ko'paydi.

Sirdaryo viloyati bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan viloyat eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

Sirdaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2025-yilning yanvar oyida 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 31,5 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yil yanvar holatiga ko'ra, 24,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 7,7 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 16,4 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025- yil yanvar, ulushi, % da)

Rossiya – 26,8 	Qozog'iston – 19,4 
Turkmaniston – 0,0 	Qirg'iz Respublikasi – 0,3 
Belarus – 0,2 	Tojikiston – 0,6 
Ozarbayjon – 0,0 	Ukraina – 0,1 
Armaniston – 0,0 	Moldova – 0,0 

MDHning erkin savdo hududida savdo qilish Sirdaryo viloyatining umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (26,8 %) hamda Qozog'iston (19,4 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025- yil yanvar, mln AQSH dollari)



O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 24,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 8,1 mln AQSH dollari, import hajmi esa 16,3 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida 21,3 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2024- yilning mos davriga nisbatan 85,6 % ni tashkil qildi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning *Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi* (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	24,9	21,3	79,6	85,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,3	11,5	55,3	102,0	44,2	54,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,7	1,3	2,7 m.	180,9	3,0	6,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	1,1	94,8	176,9	2,5	5,1
Sanoat tovarlari	8,6	4,8	112,0	55,5	35,4	22,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,0	0,1	120,1	13,6	4,3	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	2,3	2,1	155,4	89,9	9,6	9,9
Boshqa tovarlar	0,2	0,1	0,0	50,0	0,2	0,0
Xizmatlar	0,2	0,3	139,3	167,8	0,8	1,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,5 % ni tashkil etib, ular Turli xil tayyor buyumlar (9,9 %), sanoat tovarlari (22,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (54,0 %) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (5,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2025- yil yanvar)

 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,5	102,0
Sabzavotlar va mevalar	1,8	59,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	9,5	116,2
Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	0,1	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	-	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	-	-
Tirik hayvonlar	-	-
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,3	180,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,2	2,5 b.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Qog'oz massasi va makulatura	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	0,1	2,5 b.
Tabiiy kauchuk	-	-
Probka va yog'och-taxtalar	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	-	-
Elektr toki	-	-
Ko'mir, koks va briketlar	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	-	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,1	176,9
Noorganik kimyo moddalari		
O'g'itlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,3	129,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,3	172,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar		
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari		
Organik kimyo moddalari	0,5	1112,1 b.


XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	4,8	55,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,4	58,1
Rangli metallar	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Cho'yan va po'lat	-	-
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	-	-
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,3	59,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,1	13,8
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	-	-
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar va ularning elektr qismlari	-	-
Boshqa transport uskunolari	-	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	0,1	13,8
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	-	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	2,1	91,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	2,1	91,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
Poyabzal	-	-
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	-	-
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	-	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	-	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	-	-
Boshqa tovarlar	-	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, ulushi % da,
hajmi mln AQSH dollari)


2025- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlarga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga ko'paygan.



2025-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 97,3 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Rossiya	5,7	6,1	126,0	107,0	2	2
XXR	5,6	2,9	181,2	52,0	3	3
Qozog'iston	0,9	1,3	44,9	141,1	4	4
Turkiya	0,1	0,1	56,8	101,4	7	5
Afg'oniston	8,4	10,0	51,1	119,0	1	1
Tojikiston	0,7	0,1	2,1 b.	20,0	5	6
Qirg'iz Respublikasi	0,2	0,1	133,1	41,7	6	7

SIRDARYO VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2025- yil yanvar, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri 27,9 % bilan 5,9 mln AQSH dollarini, Oqoltin tumanida eksport amalga oshirilmadi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar oyida 2,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 20,6 % yoki 10,1 ming tonnaga kamaydi.

2025- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1,8 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 59,0 % ni tashki qildi va jami eksportdagi ulushi 8,5 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari XXR (61,6 %), Qozog'iston (7,8 %), Daminikan Respublikasi (5,9) hamda Afg'oniston (19,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



















MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025- yil yanvar, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 tonna</p> <p>0,0 % ↑</p>	<p>Karam</p> <p>84,6 ming AQSH dollari</p> <p>331,9 tonna</p> <p>4,6 % ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>6,8 ming AQSH dollari</p> <p>45,0 tonna</p> <p>0,4 % ↑</p>	<p>Gilos</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 tonna</p> <p>0,0 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 tonna</p> <p>0,0 % ↑</p>	<p>O'rik</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 tonna</p> <p>0,0 % ↑</p>	<p>No'xat</p> <p>146,2 ming AQSH dollari</p> <p>500,0 tonna</p> <p>8,0 % ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 tonna</p> <p>0,0 % ↓</p>
<p>Olxo'ri</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 tonna</p> <p>0,0 % ↑</p>	<p>Shaftoli</p> <p>0,0 ming AQSH dollari</p> <p>0,0 ming tonna</p> <p>0,0 % ↑</p>	<p>Loviya</p> <p>1 516,3 ming AQSH dollari</p> <p>1 478,5 tonna</p> <p>83,5 % ↑</p>	<p>Sabzi</p> <p>42,9 ming AQSH dollari</p> <p>214,0 tonna</p> <p>2,4 % ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025- yil yanvar)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	-	-	-
 Qozog'iston	632,8	142,4	7,8
 Qirg'iz Respublikasi	-	-	-
 XXR	1 254,8	1 118,4	61,6
 Pokiston	-	-	-
 Afg'oniston	574,7	358,9	19,8
 Tojikiston	15,0	5,2	0,3
 Turkiya	46,0	73,2	4,0
 Belarus	-	-	-
 Gruziya	-	-	-
 Eron	-	-	-
 BAA	-	-	-
 Ukraina	-	-	-
 Ozarbayjon	-	-	-
 Latviya	18,2	11,2	0,6
 Boshqa davlatlar	88,0	106,8	5,9

* qiymat ifodasidan

2025- yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi XXRga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 61,6 % ini) tashkil qildi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2025- yil yanvar oyi yakuni bo'yicha 3,4 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 16,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 41,0 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida trikotaj mato (59,4 %), ip kalava (20,5 %), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (20,1 %) asosiy ulushni egallagan.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI


2025- yil yanvar, mln AQSH dollari, % da.



Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 326,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,5 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 67,8 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (11,0 %), transport (21,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (19,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (48,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar oyida import hajmi 30,8 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (21,8 %), sanoat tovarlari (3,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (34,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 mln AQSH dollariga ko'paydi va 30,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi.


**Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	28,9	30,8	71,4	106,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,5	7,4	38,9	78,0	32,9	24,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	2,2 b.	0,2	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	2,2	2,3 m.	8,2 b.	0,9	7,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,5	36,9	101,2	1,8	1,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	0,9	2,3 m.	133,2	2,3	2,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,5	10,7	51,1	3,0 b.	12,0	34,8
Sanoat tovarlari	1,2	1,0	109,5	82,5	4,2	3,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	12,4	6,7	2,2 m.	54,1	42,9	21,8
Turli xil tayyor buyumlar	0,8	0,3	116,1	33,3	2,8	0,9
Boshqa tovarlar	0,0	1,0	2,9	154,0 b.	0,0	2,8

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar)


 XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,4	78,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,4	70,1
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	-	-
Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Sabzavotlar va mevalar	0,4	58,4
Hayvonlar uchun oзуqalar	0,3	112,0
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	-	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,1	33,9
Tirik hayvonlar	1,2	2,8 b.
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki	0,1	2,2 b
Ichimliklar	0,1	2,2 b.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	8,2 b.
Probka va yog'och-taxtalar	0,2	113,8
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	4,6 b.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,4	10,7 b.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1,6	24,4 b.
Qog'oz massasi va makulatura	-	-
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	-	-
Tabiiy kauchuk	-	-
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	101,1
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,1	56,1 b.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Ko'mir, koks va briketlar	0,4	80,9
Elektr toki	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	133,2
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,9	133,2
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,7	3,0 b.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,4	15,9 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	8,1	3,0 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,6	156,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	0,1	126,0
Organik kimyo moddalari	0,2	158,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,3	11,3 b.
Noorganik kimyo moddalari	-	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,1	112,4
O'g'itlar	-	-

XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	1,0	82,5
Cho'yan va po'lat	0,1	2,0 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	95,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	-	-
Rezina buyumlari	-	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	-	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,5	63,3
Rangli metallar	-	-
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	0,1	104,9
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,7	54,1
Avtomobillar shu jumladan:	1,3	46,7 b.
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	1,3	46,7 b
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	-	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	3,8	92,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1,2	22,2
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	0,2	23,2
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Boshqa transport uskunolari	-	-
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	-	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,3	-
	0,3	33,3
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	0,1	41,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,2	57,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	-	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	-	-
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	-	-
Poyabzal	-	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	-	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	-	-

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2025- yil yanvar oyi natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 53,4 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2025- yil yanvar oyida Sirdaryo viloyati 22 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Tojikiston va Germaniya) jami importning 95 % ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	MIn AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
XXR	9,1	10,4	197,8	114,5	1	1
Rossiya	2,7	7,3	66,1	2,6 b.	3	2
Qozog'iston	9,9	8,8	40,3	88,9	2	3
Koreya Respublikasi	0,0	1,3	-	31,8 b.	10	4
Turkiya	1,7	1,1	79,1	62,4	5	5
Germaniya	0,3	0,1	24,4	33,2	6	9
Hindiston	2,0	0,2	38,9 b.	10,8	4	7
Belarus	0,1	0,0	0,0	0,0	9	12
Litva	0,0	0,3	-	0,0	11	6
Italiya	0,0	0,2	-	0,0	12	8
Fransiya	0,1	0,1	9,9	71,0	8	10
Qirg'iz Respublikasi	0,2	0,1	45,9	59,3	7	11
Eron	0,0	-	6,7	-	13	13
Polsha	0,0	-	29,6	-	14	14



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2025- yil yanvar, mln AQSH doll.)



2025-yil yanvar


2024-yil yanvar

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 46,6 % bilan 14,4 mln AQSH dollarini, Shirin shahrida import hajmi amalga oshirilmadi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2025- yil yanvar oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 1,0 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,5 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 3,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2025- yil yanvar)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (130,0 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (154,2 ming AQSH dollari), Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (509,3 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (11,8 ming AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.